

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLAR

Qidirboyeva Muhsina Muzaffar qizi,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida qo‘llangan o‘zlashma so‘zlar haqida bo‘lib, ular asosan arabcha, forscha, hindiy tilidan kirgan. Mazkur maqolada Bobur asarlarida qo‘llangan o‘zlashma so‘zlar tahlil ostiga olingan.

Kalit so‘zlar: Devon, arabiy, turkiy, forsiy, hindiy so‘zlar, Mubayyin, Aruz, Takmila, Volidiya, fard, qit‘a, g‘azal, ruboiy, tuyuq.

Abstract: This article is about borrowed words in the works of Zahiriddin Muhammad Babur, about words from Arabic, Persian, and Hindi. We know that at that time Persian Arabic words were used a lot along with Turkish words. This article will shed light on these words.

Key words: Devonian, Arabic, Turkish, Persian, Indian words, Mubayyin, Aruz, Takmila, Volidiya, fard, qita, ghazal, rubai, tuyuq.

Аннотация: В данной статье речь идет о заимствованных словах в творчестве Захириддина Мухаммада Бабура, о словах из арабского, персидского и хинди. Мы знаем, что в то время наряду с турецкими словами широко использовались персидско-арабские слова, и эта статья прольет свет на эти слова.

Ключевые слова: девонский период, арабский, турецкий, персидский, индийские слова, Мубаййин, Аруз, Такмила, Волидия, фард, китъа, газель, рубай, туюк.

Ulug‘ shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur juda ko‘p davlatlarda bo‘lgan. Hindistonga borib, Boburiylar davlatini barpo etgan. Shu bois uning asarlarida turli xil tillardan o‘zlashgan so‘zlarni juda ko‘p uchratamiz. Ma‘lum bo‘lishicha Professor Ansoriddin Ibrohimov Bobur asarlarida jami bo‘lib 14 820 ta so‘z ishlatilganini aniqlagan. Bulardan 6 273 turkiycha, 6 101 arabcha, 2 446 forscha so‘zlardan iborat. Bu hisobga hind-urducha so‘zlar kirmaydi. Agarda biz shoir devonini varaqlasak, uning turkiy va forsiy tillarda bitgan asarlaridan tashqari hind-urducha so‘zlar qo‘llangan fardlarini ham uchratamiz. Bundan Bobur juda ko‘p tillarni bilgani ma‘lum bo‘ladi. Boburning mashhur asari bo‘lmish “Boburnoma” ham turkiy, forsiy, hindiy so‘zlarni ko‘ramiz. Bobur davrida ham arabcha so‘zlarni qo‘llash an‘anasi kuchli bo‘lgan. U mana shu an‘anani davom ettirgan va asarlarida arabcha so‘zlarni keng qo‘llagan. Bobur asarlaridagi jami arabcha leksika 100% deb olinsa, uning alohida asarlar bo‘yicha taqsimlanishi quyidagi ko‘rishimiz mumkin: Mubayyin 35% Aruz 30%, Devon 35% tashkil etgan. Bobur “Devon”ida jami 7793 ta so‘zshakl

ishlatilgan bo'lsa, shundan "Sof" devon (ya'ni "Volidiya"ni hisobga olmaganda) da 6599 ta, "Volidiya" risolasida 1194 ta, "Takmila"da 2275 ta so'zshakl qo'llangan. So'zshakllarning qaytarilganlarini so'zshakl ham qo'shib hisoblaganda, jami 24473 ("Volidiya"da - 2315, "Takmila"da - 4308) ta mavjud. So'zlarning kelib chiqish jihatidan tahlil qilinsa, quyidagilarini qayd etish mumkin – so'zlar turkiycha, arabcha, forsha va qisman – hindchadir. "Sof" arabcha so'shakllar - 2461 ta, forsha - 1565, turkiycha - 3383 ta, hindcha- 9 ta. Qorishiq so'zshakllar soni 266 ta. Ko'rinib turibdiki, eng ko'p so'zshakl turkiychadir. Ushbu ko'rsatkich Boburning devonida keltirilgan. Uning "Boburnoma" matnidagi ma'nolarda qo'llanadigan so'zlar arabcha o'zlashmalarning asosiy qismini tashkil etadi: muddat, muddao, manzil, azob, muloqot, mahrum, saxovat, xasis, mashhur, va'da, inoyat, shafqat, martaba, muxolif va boshqalardir. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydigan arabcha so'zlar. "Boburnoma"da faol qo'llangan bir qator arabcha so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida ishlatilmaydi: sari', istib'od (shubhali), imtidod, kasrat, ma'zul, maqdur, musta'mal kabi. Bunday so'zlar arabcha leksik birliklarning 24%ini tashkil etadi. Ba'zi arabcha so'zlarning o'zakdoshlari iste'moldan chiqqan: tahqiq (haqiqat); muforaqat (farq); saloh (sulh); tasadduq (sadaqa); mutasarrif (tasarruf).

Shu bilan bir qatorda Bobur she'rlarini ingliz tilida nashrga tayyorlagan janob E.Denison Ross yuqoridagi fardda hind-urdu va turkiy so'zlari ajoyib uyg'unlik hosil qilganini ta'kidlagan.

Hindiy-forsiy fard:

Chumaa de, chumaa, muftaloi tuem,

Ba Hinduston azbaroi tuem.

Tarjimasi:

Bir o'pay, o'ptir, senga biz muftalo,

Sen uchun Hind sori keldik, dilrabo.

Bu fardda hindcha "chumaa" – bo'sa, o'pich, "de" – bermoq so'zlari qo'llangan. Shoir hind go'zali timsolida o'zi orzu qilib yurgan va nihoyat qo'lga kiritgan Hindiston o'lkasini nazarda tutadi. Bundan tashqari "Boburnoma" asarining uchinchi, "Hindiston" nomli qismida ham ko'plab hindcha so'zlar qo'llanilganini ko'rish mumkin. Demak, buyuk boburiylar sulolasiga tamal toshini qo'ygan hukmdor o'ziga bo'ysungan hind xalqining tilini ham she'r yozish darajasida ehtirom bilan o'rgangan ekan.

Bobur devoni leksikasi alohida tekshirilmagan. B.Bafoyevning Bobur she'riyati leksikasi tahlil qilingan bitta maqolasi chop etilgan¹. U o'z tadqiqotiga 1958 yilda nashr etilgan. "Tanlangan asarlar" ni tayanch nusxa qilib olgan va uni 1982 yil nashri bilan to'ldirgan. 1958 yil nashriga Boburning g'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, fard,

¹ Hasanov S., Otajonov N., Jamolov S. Buyuk qomusiy asar // "Boburnoma". – T.: 2002. – B. 13.

masnaviyalaridan tashqari, islom farzlariga bag'ishlangan yirik "Mubayyin" asaridan parcha (374) ham kiritilgan bo'lib, jami 3222 misradan iborat. Tadqiqotchi, Bobur she'riyatida takrorlarsiz 4501 ta va qaytariq so'zlar takrori bilan esa 16712 ta so'z ishlatilganini aniqlagan². "Devon" leksikasining morfologik taxlili shuni kursatdiki, sof arabcha avom, adab, aziz, ayb, jazm, jamol va boshqalar so'zlardan tashqari arabcha+ forscha unsurlardan yasalgan so'zlar ham uchraydi. Bunday qorishiq so'zlarning soni 19 ta – vafo+dor, balo+juv, motam+zada, subhi+dam, talab+gor, g'am+gusor va h.k. Arabcha so'z va turkiycha suffiksdan hosil bo'lgan so'zlar 31 ta vafo+siz, balo+li, zaif+lik, xato+lig' kabi. Arabcha+forscha+turkiycha unsurlardan tashkil topgan so'zlar 5 dona bo'lib, ularga turkiycha -lik (-lig, -lik) suffikslari qo'shilgan (abir+angez+lik, vafo+dor+lik, vafo+kesh+lik, madad+kor+li, mexru+bon+lig). Forscha prefikslar vositasida yasalgan so'zshakllar soni 170 ta. Shundan 82 tasi arabcha suzlarga birikishdan tashkil topgan: bar+davom, betadab, be+davo, be+ehtimol, bo+safo, no+loyiq, sarv-qad va boshqalar. Forscha so'zlarga turkiycha suffiks qo'shish yo'li bilan yasalgan so'zlar 80 tani tashkil qiladi. Bundan tashqari devonda uch til unsuridan "forscha+arabcha+turkiycha" qolipda tuzilgan so'zlar 8 tani tashkil etadi. "Devon"dagi arabcha, forscha suzlarning kuplik shakli asosan turkiycha usulda -lar qo'shimchasi vositasida yasalgan - sharoitlar, shavtlar, savmlar kabi. Lekin forscha, arabcha ko'plik shakllari ham uchraydi. Masalan: ikkita so'z forscha ko'plik shaklida qo'llangan - shabxo va yoron. Arabcha ko'plik 75 marta uchradi - abyot (birligi - bayt), azkor (birligi - zikr), anfos (birligi - nafas), atfol (birligi - tifi), axvol (birligi - xol), jinon (birligi - jannat), altof (birligi - lutf), nag'am (birligi – nag'ma) va h.k. Arabcha ikkilik shakldagi so'z 2 marta uchradi: tarafayn, dorayn.³ Umuman olganda Bobur uch tilni birlashtirib juda chiroyli asar yozolgan desak xato bo'lmaydi. Ushbu so'zlar hozirgi o'zbek tilida ham saqlanib qolgan bo'lib, hozir ham shunday shaklda foydalanamiz. Bunday shakllar nafaqat Bobur foydalangan balki, undan oldin ham Navoiy Gadoiyga o'xshash bir qancha yozuvchilar o'z asarlarida qo'llagan masalan: Gadoiyning bir g'azalida 100 ta so'z qatnashgan desak, undan 49 tasi o'zbekcha so'zlar hisoblansa, 25 ta so'zlar arabcha hisoblanadi, va forscha-tojikcha so'zlarni ham uchramiz ularning soni 21 tani tashkil etadi. Navoiyning o'zida esa "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi bir g'azalidagi 100 ta so'zdan 55 tasi o'zbekcha, 20 tasi arabcha, 19 tasi fors-tojikcha ekanini ko'rishimiz mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, har qanday shoir o'z asarida boshqa tildagi so'zlardan foydalanadi va bu bilan o'z tilini qaysidir miqdorda boyitadi. Biz hozir Boburning devon tarkibini ko'rgan bo'lsak, uning "Boburnoma" asarida ham ko'plab o'zlashma so'zlar mavjuddir. Ushbu asarda ham ko'plab she'rlar bordir. Ushbu she'rlar forscha yoki turkiy tilda bitilgandir.

² Ibragimov A.P. "Bobur asarlari leksikasining lingvostatistik, semantic va genetik tadqiqi". – T.: 2008.

³ Ibragimov A.P. "Bobur asarlari leksikasining lingvostatistik, semantic va genetik tadqiqi". – T.: 2008.

Ularning umumiy soni 97 ta bo‘lib, jami 324 misrani tashkil etadi. Shundan o‘zbek tilidagi she‘riy parchalar 37 ta (155 misra), forscha she‘rlar esa 60 ta (169 misra)⁴.

Yuqoridagi ma‘lumotlardan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Boburning qalami anchagina o‘tkir bo‘lib, bemalol navoiy, Lutfiy, Atoiy kabi shoirlarga teng kela olgan. U faqat turkcha forscha tilde emas balki, arabcha, hindcha, urdu tilidagi so‘zlardan ham foydalangan. Bu bilan u o‘z asarlarini boyitgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Hasanov S., Otajonov N., Jamolov S. Buyuk qomusiy asar // “Boburnoma”. – T.: 2002. – B. 13.
2. Ibragimov A.P. “Bobur asarlari leksikasining lingvostatistik, semantic va genetik tadqiqi”. – T.: 2008.
3. “Boburnoma”dagi she‘riy parchalar hakida yana qarang: Karimov R. “Boburnoma”dagi she‘rlar xorijiy tarjimalarining qiyosiy tahlili: Filol. fan, nomz avtoref. - T., 2003. - B.11.
4. Azimjanova S. “Indiskiy divan” Babura. – T.:Fan, 1966
5. Hasanov S., Otajonov N., Jamolov S. Buyuk qomusiy asar // “Boburnoma”. – T.: 2002. – B. 13.

⁴ “Boburnoma”dagi she‘riy parchalar hakida yana qarang: Karimov R. “Boburnoma”dagi she‘rlar xorijiy tarjimalarining qiyosiy tahlili: Filol. fan, nomz avtoref. - T., 2003. - B.11.